

TURIZMNI TURLI XUSUSIYATLARIGA KO'RA
TO'LAQONLI TASNIFLASH

Eshmuratova Aynur Nurjan qizi

TDIU magistratura, 2-bosqich,

MTXT-01 guruh, talabasi

E-mail: ay_nurqizi@mail.ru

+998900266425

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmni turlari va xususiyatlariga ko'ra to'liq tasniflash masalalari tahlil qilinadi. Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik ahamiyatini inobatga olgan holda, uni maqsad, davomiylik, ishtirokchilar soni, transport vositasi, yosh va boshqa omillarga asoslangan tasniflari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, turizm tasnifining ilmiy va amaliy ahamiyati tahlil qilinib, global va mahalliy turizm turlarining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Mazkur maqola turizm sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar va amaliyotchilar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: turizm tasnifi, ichki turizm, xalqaro turizm, ijtimoiy-iqtisodiy tasnif, maqsadga ko'ra turizm, transport vositalari, davomiylik, yosh omili, turizmning tarmoqlararo xususiyati.

Аннотация: В этой статье анализируются вопросы полной классификации туризма по видам и характеристикам. С учетом социально-экономического, культурного и экологического значения туризма рассмотрены его классификации, основанные на цели, продолжительности, количестве участников, транспортном средстве, возрасте и других факторах. Также проанализировано научное и практическое значение классификации туризма, освещены специфические аспекты глобальных и местных видов туризма. Данная статья будет полезна для специалистов и практиков, проводящих научные исследования в сфере туризма.

Ключевые слова: классификация туризма, внутренний туризм, международный туризм, социально-экономическая классификация, целевой туризм, транспортные средства, продолжительность, возрастной фактор, межотраслевая характеристика туризма.

Abstract: This article analyzes the issues of a complete classification of tourism by its types and characteristics. Given the socio-economic, cultural, and ecological significance of tourism, its classifications based on goals, duration, number of participants, vehicle, age, and other factors were considered. The scientific and practical significance of the classification of tourism is also analyzed, and the specific aspects of global and local tourism types are highlighted. This article will be useful for

specialists and practitioners conducting scientific research in the field of tourism.

Key words: classification of tourism, domestic tourism, international tourism, socio-economic classification, tourism according to purpose, means of transportation, duration, age factor, intersectoral nature of tourism.

Turizm – bu inson faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni qamrab oluvchi muhim sohasi bo‘lib, sayohat qilish, hordiq chiqarish, yangi joylarni o‘rganish va bilim olish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ta‘rifiga ko‘ra, turizm – bu odamlarning kundalik faoliyatidan tashqarida bo‘lgan joylarga vaqtinchalik borishi va bu jarayonda xizmatlardan foydalanishi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatdir.

Jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi¹.

Fuqarolarning, chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, madaniy, ma‘rifiy, kasbiy va biznes, sport, diniy va boshqa maqsadlar uchun, shuningdek, pullik faoliyat bilan shug‘ullanmasdan boshqa mintaqaga, davlatga vaqtincha yashash uchun jo‘nab ketishi va sayohatning boshlang‘ich nuqtasiga qaytish bilan yakunlanadigan sayohatlar².

«Turizm – bu alohida davlat yoki xalq xo‘jaligi doirasidagi turli elementlar o‘rtasidagi aloqalarni, shuningdek, milliy iqtisodiyotning butun jahon xo‘jaligi bilan o‘zaro bog‘liqliklarini qamrab oluvchi ulkan iqtisodiy tizimdir»³.

Xuddi shunday fikr N. Tuxliyev tomonidan ham ilgari surilgan bo‘lib, u turizmni quyidagicha ta‘riflaydi: «Turizm – bu barcha ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga kirib boruvchi, hududiy darajadan global darajagacha bo‘lgan ko‘plab o‘zaro bog‘liqlikdagi turli faoliyatlar va xizmatlar majmuini namoyon qiluvchi murakkab tizimdir»⁴. Ushbu ta‘riflar turizmning iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi o‘rnini kengroq qamrab olib, uning tizimli va ko‘p qirrali mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Turizm mazmunan bir qancha asosiy vazifalarni bajaradi, jumladan:

- Madaniy aloqalarni rivojlantirish va xalqaro do‘stlikni mustahkamlash;
- Ijtimoiy barqarorlik va aholi turmush darajasini oshirish;
- Mintaqalar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va diversifikatsiya qilish.

Mazmunan turizm ko‘p qirrali sohaga ega bo‘lib, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

¹ Мирзаев М.А., Алиева М.Т. Туризм асослари: бакалаврият таълим йўналишлари талабалари учун ўқув қўлланма.– Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2011. –288 б.

² Российский энциклопедический словарь. «Туризм». Под ред. С.Ю. Житенёва. М.: Институт Наследия, 2018. – 490 с.

³ Жукова М.А. Индустрия туризма: менеджмент организации. — М.: Финансы и статистика, 2003. – 192 с.

⁴ Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. — Т.:Гос.науч.изд-во Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 367 с.

Turizm o‘zining maqsadi, tashkil etilish usullari va geografik qamrovi bo‘yicha turli turlarga ajratiladi.

Zamonaviy dunyoda turizm turli hodisalar, aloqalar va munosabatlarda namoyon bo‘ladi, bu esa uni tasniflash zaruratini keltirib chiqaradi. Turizmni tasniflash – bu uni ma’lum bir amaliy maqsadlarga bog‘liq holda bir xil xususiyatlarga ega bo‘lgan guruhlariga ajratish jarayonidir. Ushbu yondashuv turizmning murakkab va ko‘p qirrali mohiyatini yaxshiroq tushunish va uni boshqarish uchun zarurdir.

Tasniflash turizmning asosiy turlari, yo‘nalishlari va faoliyat sohaslarini belgilashga yordam beradi, bu esa sohaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Turizmning sayohat maqsadlariga qarab tasnifi. Turizmning maqsadlariga ko‘ra tasnifi uchun yagona yondashuv mavjud emas, chunki turizmning maqsadlari juda xilma-xil va ko‘pincha bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lib keladi (masalan, dam olish va bilim olishni birgalikda uyg‘unlashtirish). Shuning uchun ushbu tasnif shartli va subyektiv xarakterga ega bo‘lsa-da, asosiy turizm turlari quyidagicha ajratiladi:

1. Bilim olish turizmi (poznavatel'nyy turizm). Ushbu turizm turi tarixiy, madaniy yoki geografik diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish orqali madaniyat, tarix, tabiat va diniy xususiyatlarni o‘rganishga qaratilgan.

2. Diniy (ziyosat) turizm. Diniy joylarni ziyorat qilish, shuningdek, ruhiy poklanish va o‘zlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar.

3. Ekoturizm (ekologik turizm). Tabiatning nisbatan buzilmagan joylariga tashrif buyurish orqali ularning ekologik yaxlitligini buzmasdan, hududning tabiiy va etnografik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Bu turizm turi mahalliy aholiga atrof-muhitni muhofaza qilishdan iqtisodiy foyda keltiradi.

4. Sport turizmi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita sport bilan bog‘liq sayohatlar. Masalan, sport musobaqalarida qatnashish yoki tomoshabin sifatida ishtirok etish.

5. Davolash va sog‘lomlashtirish turizmi. Sog‘liqni mustahkamlash maqsadida sanatoriylar, kurortlar yoki boshqa sog‘lomlashtirish muassasalariga sayohatlar.

6. Biznes turizm (delo voy turizm). Professional yoki tijorat manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladigan sayohatlar. Masalan, kongresslar, konferensiyalar, seminarlar yoki siyosiy tadbirlarda qatnashish.

7. Ta’lim turizmi (obrazovatel'nyy turizm). Ta’lim olish yoki xorijda amaliyot o‘tash maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar⁵.

Ushbu turizm turlari turli maqsadlarni qamrab olgani uchun, ularning ba’zi jihatlari o‘zaro kesishishi mumkin. Bu esa turizmning yanada boy va murakkab tasnifini shakllantiradi.

Turizmni vositachi ishtirokiga qarab tasniflash. Turizmni tashkil qilishda vositachilar (turfirmalar) ishtirokiga qarab quyidagi ikki tur ajratiladi:

⁵ Быстров С. А. Организация туристской деятельности. Управление турфирмой: Учебное пособие. М.: ФОРУМ, 2013. С. 20.

1. Tashkil qilingan turizm. Bu turizm turi turist tomonidan oldindan kelishilgan marshrut, muddat, xizmatlar hajmi va narx asosida turfirmadan tur sotib olishni o'z ichiga oladi. Bunda turfirmalar sayohatni to'liq tashkil qiladi, jumladan, yashash joyini ta'minlash, ovqatlanish, transport va qo'shimcha xizmatlarni taklif etadi. Bu turizm turi qulaylikni afzal ko'radigan va vaqtni tejashni istagan turistlar uchun mos keladi.

2. Tashkil qilinmagan turizm. Bu turizm turi sayohatni turistning o'zi tashkil qilishini nazarda tutadi. Bunda turist marshrutni mustaqil ishlab chiqadi, transport vositalarini tanlaydi, to'xtash joylarini belgilaydi, tunash joylari va sayohat davomiyligini o'zi aniqlaydi. Tashkil qilinmagan turizm jahon amaliyotida, ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida juda mashhur bo'lib, umumiy turistik sayohatlarning taxminan 80 foizini tashkil etadi. Ushbu turizm turi tobora ommalashib bormoqda, chunki u ko'proq erkinlik va mustaqillikni ta'minlaydi⁶.

Mazkur tasnif turizmni tashkil etish usullari va turistlar ehtiyojlarini qondirish mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Turizmni davomiyligiga qarab tasniflash. Turizm davomiyligi bo'yicha quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

1. Qisqa muddatli turizm. Bu turizm turi vaqt bilan cheklangan bo'lib, davomiyligi odatda 2-3 kundan oshmaydi. Ushbu turizmga odatda quyidagilar kiradi:

- Ishbilarmonlik safarlari (biznes turizm);
- Dam olish kunlari uchun qisqa turlar.

2. O'rta muddatli turizm. Bu turizm turi davomiyligi 4 kundan 2 haftagacha bo'lgan sayohatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu turizmning asosiy turlari:

- Bilim olish turizmi;
- Sport turizmi;
- Ekoturizm;
- Diniy ziyorat turlari.

3. Uzoq muddatli yoki davomli turizm. Bu turizm turi 14 kun yoki undan ko'proq davom etadi. Bunga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Davolash va sog'lomlashtirish turizmi;
- Uzoq muddatli ziyoratlar yoki o'quv turlari.

Mazkur tasnif shartli xarakterga ega, chunki turli turizm turlari davomiyligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, ishbilarmonlik safarlari ba'zida bir haftagacha davom etishi yoki sport turizmi 14 kundan ko'proq cho'zilishi mumkin. Ushbu tasnif turizmning turli maqsadlari va talablari bo'yicha umumiy yo'naltirish beradi.

Turizmni ishtirokchilar soniga qarab tasniflash. Turizm ishtirokchilar soniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Individual turizm. Bu turizm turi bitta yoki bir nechta shaxs (odatda 5 kishigacha) tomonidan amalga oshiriladi. Individual turizm maxsus shaxsiylashtirilgan

⁶ Кусков А. С. Основы туризма: Учебник. М.: Кнорус, 2015. С. 39.

dasturlar asosida tashkil etilib, yuqoriroq narxga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu turizm turi ko‘proq mustaqillik va moslashuvchanlikni afzal ko‘radigan turistlar uchun mo‘ljallangan.

2. Guruhli turizm. Guruhli turizm bir necha shaxslarning umumiy marshrut va shartlar asosida sayohat qilishini anglatadi. Guruh miqdori turizm turi va transport vositasiga qarab o‘zgaradi:

- Umumiy holda, 6 va undan ko‘p ishtirokchilar guruhli turizm deb hisoblanadi;
- Avtobus sayohatlari uchun kamida 15 kishi;
- Havo yoki suv transporti sayohatlari uchun 20-30 yoki undan ortiq kishi talab

qilinadi.

3. Oila turizmi. Oila turizmi alohida turizm shakli bo‘lib, qatnashchilar soni oila hajmiga bog‘liq ravishda keng doirada o‘zgaradi. Ushbu turizm turi oilaviy dam olishga ixtisoslashgan infratuzilma va oilaviy chegirmalarning mavjudligi tufayli tobora ommalashib bormoqda. Oila turizmi oilaviy birlikni mustahkamlash va bolalar bilan vaqt o‘tkazishga yo‘naltirilgan⁷.

Mazkur tasnif turizm ishtirokchilarining ehtiyojlariga ko‘ra xizmatlarni moslashtirish, shuningdek, turistik mahsulotlarni aniqroq maqsadli auditoriyaga yo‘naltirish uchun muhimdir.

Turizmni transport vositasiga qarab tasniflash

Turizm turli transport vositalaridan foydalanish asosida quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Aviaturizm

- Sayohatlar samolyotlarda amalga oshiriladi.
- Xususiyatlari: yuqori tezlikda yetib borish, qulaylik, lekin nisbatan yuqori

narx.

2. Temiryo‘l turizmi

- Poyezdlarda sayohat qilish.
- Afzalliklari: tezlik, qulaylik, qisqa vaqt ichida ko‘p diqqatga sazovor joylarni

ko‘rish imkoni.

3. Avtomobil turizmi

- Shaxsiy yoki ijaraga olingan avtomobillarda sayohat qilish.
- Xususiyatlari: yuqori mobil lik, marshrut va sayohat davomiyligini mustaqil

belgilash imkoniyati.

4. Avtobus turizmi

- Turli xil avtobuslarda sayohat qilish (kichik avtobuslardan tortib, ikki qavatli ekskursiya avtobuslari yoki yotoq o‘rinlari bilan jihozlangan avtobuslar).
- Afzalliklari: nisbatan arzon narx.

5. Dengiz turizmi

⁷ Кусков А. С. Основы туризма: Учебник. М.: Кнорус, 2015. С. 41.

- Dengiz kemalari, okean laynerlari va yaxtalarda amalga oshiriladigan sayohatlar.

- Xususiyatlari: yuqori qulaylik, ko'p zavqli mashg'ulotlar, lekin yuqori narx. Dengiz kruizlari eng qimmat ko'rinish hisoblanadi.

6. Daryo turizmi

- Daryo, ko'l yoki kanallarda suv transportida sayohat qilish.

- Xususiyatlari: geografik chegaralangan hudud, qisqaroq davomiylik.

7. Velosiped va mototsikl turizmi

- Velosiped yoki mototsikl yordamida amalga oshiriladigan sayohatlar.

- Afzalliklari: kichik hududlardan tortib uzoq masofalargacha bo'lgan marshrutlar.

8. Boshqa transport vositalaridan foydalaniladigan turizm

- Maxsus transport vositalarida sayohatlar, masalan: havo sharida, motodeltaplanda yoki itlar tortadigan aravalarda.

9. Piyoda turizm

- Hech qanday transport vositasidan foydalanmasdan amalga oshiriladigan sayohatlar, odatda sayohatlar va yurish uchun mo'ljallangan hududlar.

- Afzalliklari: tabiat bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lish imkoniyati.

Turizm transport vositalariga qarab Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan uchta asosiy guruhga birlashtiriladi:

- Havo transporti (aviaturizm)

- Yer transporti (avtomobil, avtobus, temiryo'l)

- Suv transporti (dengiz va daryo turizmi)

Odatda sayohat faqat bitta transport vositasidan foydalanish bilan cheklanmaydi. Ikki yoki undan ortiq transport vositasidan foydalangan turizm "kombinatsion turizm" deb ataladi. Bu yondashuv turizmning moslashuvchanligini va turistlar ehtiyojlariga javob berishini oshiradi⁸.

Turizmni turistlarning yoshiga qarab tasniflash. Turizm turistlarning yosh guruhlariga qarab quyidagicha tasniflanadi:

1. Bolalar turizmi

- 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun sayohatlar.

- Maqsadlar: ta'limiy, dam olish, sport va madaniy tadbirlar.

2. Yoshlar turizmi

- 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan turistlar uchun sayohatlar.

- Xususiyatlari: faol dam olish, arzon narxlardagi turistik xizmatlar, do'stlar yoki talaba guruhlari bilan safar qilish.

3. O'rta yoshdagi turistlar uchun turizm

⁸ Быстров С. А. Организация туристской деятельности. Управление турфирмой: Учебное пособие. М.: ФОРУМ, 2013. С. 32.

- 25 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan faol turistlar.

- Xususiyatlari: ishbilarmonlik, madaniy, ekologik, oilaviy va boshqa maqsadlarda sayohatlar. Ushbu guruh turizmning eng keng qamrovli segmentini tashkil qiladi.

4. Keksalar turizmi

- 65 yosh va undan katta yoshdagilar uchun sayohatlar.

- Xususiyatlari: sog'lomlashtiruvchi va dam olish maqsadidagi sayohatlar, yuqori qulaylik va nisbatan past jismoniy faollik talab qiladigan xizmatlar.

Mazkur tasnif turizmni yoshga qarab maqsadli segmentlarga bo'lishga yordam beradi, bu esa turistik mahsulotlarni aniqroq rejalashtirish va taklif qilish imkonini yaratadi. Har bir yosh guruhi uchun o'ziga xos xizmatlar va infratuzilma talab etiladi, bu esa turizm sohasida samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Turizmni hududiy jihatdan tasniflash. Hududiy tasnif turizmning davlat chegaralarini kesib o'tishiga asoslangan bo'lib, u ikki asosiy shaklga bo'linadi:

1. Ichki turizm

- Bu bir mamlakat aholisi tomonidan o'z mamlakati ichida amalga oshiriladigan sayohatlar.

- Xususiyatlari:

- Daromadni mamlakat ichida hududlar o'rtasida taqsimlashga yordam beradi.

- Milliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi va hududiy infratuzilmani rivojlantiradi.

2. Xalqaro turizm

- Bu boshqa davlatga sayohat qilishni nazarda tutadi, ya'ni mamlakatdan tashqaridagi turistlik safar.

- Xususiyatlari:

- Xalqaro iqtisodiy aloqalarda muhim rol o'ynaydi.

- Turizm xizmatlari eksport va import shakllarida namoyon bo'ladi.

Xalqaro turizmning turlari:

- Kirish turizmi: Mamlakatga boshqa davlatlardan turistlarning tashrifi. Masalan, O'zbekistonga chet ellik turistlarning kelishi.

- Chiqish turizmi: Mamlakat aholisining boshqa davlatlarga sayohati. Masalan, O'zbekiston fuqarolarining boshqa mamlakatlarga sayohatlari.

Mazkur tasnif milliy va xalqaro miqyosda turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Ichki turizm mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlasa, xalqaro turizm valyuta oqimlarini ta'minlab, global iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi.

Turizmni turli xususiyatlariga ko'ra tasniflash uning murakkab va ko'p qirrali mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu maqolada turizmning maqsad, davomiylik, ishtirokchilar soni, transport vositasi, yosh va boshqa mezonlarga asoslangan tasniflari ko'rib chiqildi. Har bir tasnif turizmning ijtimoiy-iqtisodiy,

ekologik va madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslar:

1. Быстров С. А. Организация туристской деятельности. Управление турфирмой: Учебное пособие. М.: ФОРУМ, 2013. С. 32.
2. Жукова М.А. Индустрия туризма: менеджмент организации. — М.: Финансы и статистика, 2003. — 192 с.
3. Кусков А. С. Основы туризма: Учебник. М.: Кнорус, 2015. С. 41.
4. Мирзаев М.А., Алиева М.Т. Туризм асослари: бакалаврият таълим йўналишлари талабалари учун ўқув қўлланма.— Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2011. —288 б.
5. Российский энциклопедический словарь. «Туризм». Под ред. С.Ю. Житенёва. М.: Институт Наследия, 2018. — 490 с.
6. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. — Т.:Гос.науч.изд-во Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. — 367 с.